

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI MASHG'ULOTLARIDA BOLALARNING PSIXOLOGIK YOSH XUSUSIYATLARI

Qòsharova Hafiza Barat qizi

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani
18-DMTT tayyorlov guruh tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ikkinchi til mashg'ulotlarida ona tilini mukammal o'zlashtirishining ahamiyati va mashg'ulot jarayonida ularning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: intellekt, lingvistik, dialog, monolog, individual qobiliyatlar, nutqiy rivojlanish.

Abstract. This article discusses the importance of perfect mastery of the mother tongue in preschool children in the second language classes and taking into account their young psychological characteristics in the classroom.

Keywords: intelligence, linguistics, dialogue, monologue, individual skills, speech development;

Аннотация. В данной статье рассматривается важность совершенного владения родным языком на уроках второго языка дошкольниками и учитываются их юношеские психологические особенности во время занятий.

Ключевые слова: интеллект, лингвистика, диалог, монолог, индивидуальные способности, речевое развитие.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi, shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yoshar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi, Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmastiklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. O'sib kelayotgan avlodning jamiyat normalarini to'la qonli qabul qilishi, o'z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo'lib yetishishi oilaning boshqa rasmiy tarbiya maskanlari bilan o'rnatadigan to'g'ri munosabatlariga bevosita bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonida maktabgacha ta'lim muaasasalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedogoglari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo'ladi va ular maktab ma'muriyatidan farqli ikki xil funksiyani bajaradi:

rasmiy va norasmiy. Undan tashqari, tarbiyachining o'zi ota-onaga nisbatan ikki xil holatda bo'ladi – rasmiy tarbiyachi va samimiy, e'tiborli suhbatdosh tarzida. Lekin oila a'zolari bilan maktabgacha ta'lim muaasasalarining xodimlarining bitta bola tarbiyasidagi ishlarini uyg'unlashtirish, yaxshi samaraga erishish unchalik oson ish emas. Chunki ikkala tomon bir-biriga ishongan taqdirdagina ular o'rtasida samimiy muloqot bo'lishi va tarbiyada ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunday muvaffaqiyatli munosabatlarning bir qator psixologik tamoyillarini ajratish mumkin:

- avvalo, tarbiyachi ota-onaga farzandini faqat yaxshi tomondan ko'rsata bilishi lozim. Ya'ni, boqchadagi bolaning obrazi ota-ona uchun ijobiy bo'lsagina, ular farzandini xonadonidan yaxshi kayyait bilan olib keladi va uyga qaytayotganda ham tarbiyachi bilan iliq xayrlashib, bolaning ham uni hurmat qilishi va mashg'ulotlarga aytganlariga quloq tutishi lozimligiga o'rgata oladi. Aks holda ota-ona og'rinib bolasini boqchaga olib keladi va uni maktabgacha ta'lim muaasasasining tartiblarini menismalikka o'rgatib qo'yishi mumkin. Demak, birinchi tamoyil – ota-onaga maktabgacha ta'lim muaasasasidagi bola to'g'risida ijobiy obraz yarata olish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari ota-ona bilan kundalik muloqotda bolaning erishgan yutuqlari, qanday bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lganini ko'rsata olishlari lozim. Masalan, tengqurlari bilan muloqotda o'zini qanday tutgani, do'stlari mavjudligi, berilgan she'r yoki boshqa topshiriqni bugun aynan qay tarzda o'zlashtira olganligi, kimga qanday yordam bera olgani, sosiometrik maqomi qanday ekanligi hamda norasmiy tarzda ma'lumot bera olishi kerak. Demak, bolaning yutuqlaridan ota-onani xabardor qilib borish tamoyili ota-ona bilan tarbiyachining hamkorligini mustahkamlaydi.

- tarbiyachi bolaning uydagi xulqi va yutuqlari yoki kamchiliklarini bilib turishi shart. Bu ota-ona bilan ishonchga asoslangan dialog jarayonida aniqlanadi. Chunki tarbiyachi bolaning uyda qanday o'zini tutishi, odat va qiliqlarini bilmasa, unga to'g'ri pedagogik yondashuvni tashkil etolmaydi. Ya'ni, uchinchi tamoyil – bolaning oiladagi, uydagi maqomini bilish. Yuqoridagilarning bola ijtimoiylashuvida inobatga olinishi maktabgacha ta'lim muaasasalarining oila bilan yagona shior ostida "Keling birgalikda o'rganaylik!" tarzida ishlashga va yutuqlarga erishiga imkon beradi. Bunda asosiy manfaatdor tomon va faollik ko'rsatuvchi birinchi navbatda ota-ona bo'lishi lozimligini unutmaslik kerak. Oxirgi yillarda oilaviy ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlarda qator qonun hujjatlari va normativ aktlar qabul qilinganki, ularga ko'ra, ota-onaning xohishiga ko'ra oila muhitida, xonadonda bolaning ta'lim va tarbiyasini tashkil etish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emosional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

- ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;

- uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shugullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi, bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir. Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. o'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarda asosiy rol ni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rqmasligida, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muxim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bulgaya shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqat-e'tibor, mehribon bo'lishi xususiyatidir. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pogonasi to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'lik, rivojlanmaganlik sababli ularga ma'lum darajada

zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Keyingisi bolaning aqliy tayyorgarligidir. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning ma'lum bir dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktabda beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, Lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, taxlil ega olish, umumlashgira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishida ham asosiy funksiyani bajaradi. Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar quyiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivasion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layohatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi. Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir. Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining iindividual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odamga oz muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nixoyat, uchinchisi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rol hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi,

sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tugma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hyech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika qobiliyatlarda nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqish uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992. – 48 b
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017 — 2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сон қарори
3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T-2018
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 25 oktyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 225-sonli qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida"gi Nizom.
5. Аскарходжаева М.И. Обучение дошкольников русской разговорной речи в детских садах Узбекистана. –Ташкент, 1996 22-стр
6. Askarxo'jaeva M.I., Hakimova N.A. Bog'chalarda o'zbek tilini o'rgatish. – Toshkent, 1994.44-b
7. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.
8. Bolalar entsiklopediyasi. 2-nashr. –T. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. -664 b.
9. Jo'raeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.